

**O`Z-O`ZINI BOSHQARISH ORGANLARI HAMDA IJTIMOIY XODIM
FAOLIYATI**
SELF-GOVERNMENT BODIES AND SOCIAL WORKER ACTIVITY
**ОРГАНЫ САМОУПРАВЛЕНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ
РАБОТНИКОВ**

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali
Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi;*

Ergasheva Durdona Kenjaboy qizi
e-mail: ergashevadurdona443@gmail.com

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali
Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi;*

Sabirova Surayyo Farkod qizi
e-mail: sobirovasurayyo255@gmail.com

Anottatsiya: Ushbu maqolada o`z-o`zini boshqarish organlari hamda, o`z-o`zini boshqarish organlarining aholining manfaatlarini himoya qilish, turli masalalarini joyida hal etish, ijtimoiy yordam ko'rsatish va jamoaviy hayotni boshqarishga xizmat qilishi, Ularning asosiy xususiyatlari, Fuqarolar yig'inlari geografik joylashuvi bo'yicha quyidagi toifalari, o`z-o`zini boshqarish organlarida ijtimoiy xodimning faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar. O`z-o`zini boshqarish organlari, fuqaro, jamiyat, ijtimoiy soxa, himoya, Profilaktik ishlar, Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, ijtimoiy ko'mak.

Annotation: In this article, self-government bodies and self-government bodies serve to protect the interests of the population, solve various issues on the spot, provide social assistance and manage collective life, their main features, citizens' assembly. The following categories of nests according to their geographical location, information about the activities of social workers in self-governing bodies is given.

Key words. Self-management bodies, citizens, society, social sphere, protection, Preventive works, Spiritual and educational activities, social assistance.

Аннотация: В данной статье органы самоуправления и органы самоуправления служат для защиты интересов населения, решения различных вопросов на месте, оказания социальной помощи и управления коллективной жизнью, их основные особенности, сходы граждан. гнезд по их географическому положению, приведены сведения о деятельности социальных работников в органах самоуправления.

Ключевые слова. Органы самоуправления, граждане, общество, социальная сфера, охрана, Профилактические работы, Духовно-просветительская деятельность, социальная помощь.

KIRISH

Bu mavzuni yoritishdan avval biz fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyati haqida ham qisqacha ma`lumot berib o`tish zarur deb bildim. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari ta`rifi bu:

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari – bu fuqarolar o`z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil amalga oshiradigan, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal qilishda ishtirok etadigan va davlat boshqaruvi tizimida muhim o`rin tutadigan demokratik institutdir. O`zbekiston qonunchiligiga ko`ra, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga mahallalar, qishloq yoki shahar bo`linmalari misol bo`la oladi. Ular aholining manfaatlarini himoya qilish, turli masalalarni joyida hal etish, ijtimoiy yordam ko`rsatish va jamoaviy hayotni boshqarishga xizmat qiladi.

Ularning asosiy xususiyatlari:

- Mustaqillik va demokratik boshqaruv prinsiplari asosida ishlaydi;
- Mahalliy aholi vakillaridan saylangan tashkilotlardan iborat;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda ishlaydi.

Fuqarolar yig`inlari faoliyatini tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadida barcha fuqarolar yig`inlari geografik joylashuvi va aholi soni bo`yicha toifalarga ajratiladi.

Fuqarolar yig`inlari geografik joylashuvi bo`yicha quyidagi toifalarga bo`linadi:

shaharda;

tuman markazida;

tuman markazigacha 30 km bo‘lgan masofada;

tuman markazidan 30 km va undan olis masofada, tog‘li va cho‘l hududida;

chegara (yoki anklav) hududda joylashgan fuqarolar yig‘inlari.

Fuqarolar yig‘inlari aholi soni bo‘yicha quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1000 nafargacha aholisi bo‘lgan;

1001 — 2000 nafargacha aholisi bo‘lgan;

2001 — 4000 nafargacha aholisi bo‘lgan;

4001 — 6000 nafargacha aholisi bo‘lgan;

6001 — 8000 nafargacha aholisi bo‘lgan;

8000 nafardan ziyod aholisi bo‘lgan fuqarolar yig‘inlari.¹

Asosiy qism.

Endilikda o`z-o`zini boshqarish organlarida ijtimoiy xodimning faoliyati haqida ma`lumotlar beradigan bo`lsak.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida ijtimoiy xodimning faoliyati mahalla yoki boshqa mahalliy tuzilmalar doirasida aholi ijtimoiy muammolarini hal qilish, yordamga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan². Ushbu faoliyat quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Yordamga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlash

Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga moddiy, ma'naviy hamda maslahat ko‘magi ko‘rsatish.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalar va yetim bolalarga yordam ko‘rsatish.

Ijtimoiy nafaqalarni rasmiylashtirishga ko‘maklashish.

Profilaktik ishlar olib borish

Mahallada deviant xulq-atvorga ega shaxslarni aniqlash va ularga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.06.2021 yildagi 380-sun

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.08.2024 yildagi PF-111-sun

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

psixologik, ijtimoiy hamda huquqiy yordam ko‘rsatish.

Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ularni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish.

Oilaviy nizolarni oldini olish va ularni bartaraf etishda ko‘maklashish.

Aholi bilan aloqa o‘rnatish

Mahalliy aholini davlat dasturlari va yordam shakllari haqida xabardor qilish.

Turli muammolarni hal qilish uchun davlat organlari bilan hamkorlik qilish.

Fuqarolarni ishga joylashtirish yoki qayta o‘qitish dasturlarida ishtirok etishga yordam berish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat

Mahallada ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi tadbirlar tashkil qilish.

Oilalar va yoshlar bilan sog‘lom muhitni rivojlantirish bo‘yicha ishslash.

Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali mahalla aholisi orasida ijtimoiy birdamlikni oshirish.

Monitoring va hisob-kitoblar yuritish

Mahalladagi ijtimoiy ahvolni tahlil qilish va muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Turli ijtimoiy yordam dasturlarining amalga oshirilishini nazorat qilish.

Ijtimoiy xodimlar avvalo mahallalarda ijtimoiy ko`makka muhtoj qatlamlarni toppish va ularga manzilli yordam ko`rsatish hisoblanadai. Hozirda O‘zbekistonda 4600 nafar ijtimoiy ishchi faoliyat yuritadi. 2024 yilda esa jamiyatdagi odamlarga xizmat ko‘rsatish va ularning hayotiga ijobiy o‘zgarishlar kiritish uchun yanada ko‘p ijtimoiy ishchilar mazkur soha vakillari qatoriga qo‘shiladi. Hozirgi kunda aholining har 100 ming nafariga ijtimoiy ish xodimlari soni 13 nafarni, bolalarni himoya qilish funktsiyalarini bajaruvchi ijtimoiy ish xodimlari soni esa har 100 ming nafar bolaga 3 nafarni tashkil etadi. O‘zbekistonda bolalar ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘proq ijtimoiy ish xodimlariga ehtiyoj bor .³

³ <https://ihma.uz/uz/bosh-sahifa/>
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ijtimoiy ish har doim murakkab kasb bo‘lib kelgan, chunki u turli sohalardagi ishlarni (davlat, xususiy, mustaqil, ixtiyoriy) qamrab oladi, turli sohalarda namoyon bo‘lishi mumkin (muassasalarda ishlash, ofis xizmati, har qanday maqsadli guruhlar uchun loyihalarni ishlab chiqish), turli maqsadlarga ega 9 bo‘lgan turli vazifalarni (g‘amxo‘rlik, nazorat, qo‘llab-quvvatlash va har qanday kampaniyani o‘kazishda vakolat berish, baholash, boshqarish) bajaradigan xodimlarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin (resurslarni muhtojlar foydasiga qayta taqsimlash, ijtimoiy nazorat va turli xil og‘ishlarni tiklash, oldini olish va ijtimoiy muammolar xavfini kamaytirish). Ba‘zi mualliflar "fragmentatsiya" deb ataydigan bu hodisa so‘nggi paytlarda ortib bormoqda. Umuman olganda, etika ham, ijtimoiy ish etikasi ham falsafa, psixologiya, sotsiologiya va gumanitar sohaning boshqa sohalari elementlariga asoslangan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab sohasidir.

Ijtimoiy ish etikasida to_rta asosiy metodologik kategoriya mavjud:

- axloqiy ong;
- axloqiy munosabatlar;
- axloqiy harakatlar;
- kasbiy burch.

Ijtimoiy ish axloqining barcha kategoriyalari axloqiy me‘yorlarga asoslanadi (lotincha norma – qoida, namuna; axloqiy talabning eng oddiy shakli). Ijtimoiy ish xodimi axloqiy ongingin tarkibiy qismlari (bosqichlari):

- axloqiy bilim;
- axloqiy e‘tiqodlar;
- hatti-harakatda axloqiy ehtiyoj;
- axloqiy hatti-harakat

Kasbiy etika ijtimoiy ishning asosidir. Kasb o‘zining asosiy qadriyatları, axloqiy tamoyillari va axloqiy me‘yollarini aniq belgilashi kerak. Milliy assotsiatsiyaning axloq kodeksi ushbu qadriyatlar, tamoyillar va standartlarni belgilaydi. Ushbu Kodeks barcha ijtimoiy ishchilar va ijtimoiy ish talabalari uchun, ularning kasbiy funksiyalaridan, ish muhitidan va ular xizmat ko‘rsatadigan aholidan qat‘iy nazar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo'llanma hisoblanadi.⁴

Har bir mahallalarda ijtimoiy xodimlar tomonidan nogironligi bo`lgan va imkoniyati cheklangan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko`rsatish maqsadida ijtimoiy assistent lavozimi tashkil etilgan. Har bir assistant lavozimidagi xodimlarga malakaviy talablar qo`yilgan bular quyidagilardir.

Assistant lavozimiga quyidagi malakaviy talablar qo`yiladi:

birinchi toifa — o'rta maxsus, kasb-hunar, boshlang'ich professional, o'rta professional, o'rta maxsus professional ma'lumoti (ijtimoiy, pedagogik, tibbiy) yoki umumiy o'rta ta'lim va kasbiy ta'lim o'tganligi to'g'risidagi hujjat va ikkinchi toifali assistant lavozimida bir yildan kam bo'limgan mehnat stajiga ega bo'lishi;

ikkinchi toifa — o'rta maxsus, kasb-hunar, boshlang'ich professional, o'rta professional, o'rta maxsus professional ma'lumoti (ijtimoiy, pedagogik, tibbiy) yoki umumiy o'rta ta'lim va kasbiy ta'lim o'tganligi to'g'risidagi hujjat, toifasiz assistent lavozimida bir yildan kam bo'limgan mehnat stajiga ega bo'lishi; toifasiz — o'rta maxsus, kasb-hunar, boshlang'ich professional, o'rta professional, o'rta maxsus professional ma'lumot yoki umumiy o'rta ta'lim va kasbiy ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatga ega bo'lishi, mehnat staji talab etilmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ihti oiy yordam ko`rsatgan holda ularni hayotini yaxshilash maqsadida har bir mahallalarda fuqarolar soniga qarab ijtimoiy xodimlar ajratilgan. Yanada aholini ijtimoiy holatini yaxshilash borasida islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rnlarda Agentlik deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Ahliga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan tashkil etilgan. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar

⁴ IJTIMOIY ISHNING ETIK PRINSIPLARI VA QADRIYATLARI DAVRONBEK HOSHIMOVICH QODIROV Toshkent - 2023
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdon shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. IJTIMOIY ISHNING ETIK PRINSIPLARI VA QADRIYATLARI

DAVRONBEK HOSHIMOVICH QODIROV Toshkent - 2023

**2.“FUQAROLARNING O’ZINI O’ZI BOSHQARISH ORGANLARI
TO’G’RISIDA”GI QONUNI YANGI TAHRIRDAGI.**

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.06.2021
yildagi 380-son

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.08.2024 yildagi
PF-111-son

5.<https://ihma.uz/uz/bosh-sahifa/>

6.<https://www.gazeta.uz/oz/>

7.<https://my.gov.uz/oz>

8. "**Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti**" (N.N. Qo‘ziyev)

9. "**Ijtimoiy pedagogika asoslari**" (N. Karimova)

10. "**Social Work: An Introduction**" (Kate Wilson, Gillian Ruch, Mark Lymbery, Andrew Cooper)

11. "**Working with Vulnerable Adults**" (Louise Harms)